

АНОМАЛ СОВУҚ: АВТОСАРОЙЛАР ЗАРУР ВОСИТАЛАР БИЛАН ТАЪМИНЛАНДИ

АОКАда ўтказилган брифингда Тошкент шаҳрида жамоат транспорти тизимидаги муаммоларни бартараф этиш бўйича идоралараро тезкор штаб томонидан амалга оширилган ишлар юзасидан маълумот берилди.

Жумладан, давлатимиз раҳбари топшириғига асосан, Тошкент шаҳрида жамоат транспорти тизимидаги муаммоларни бартараф этиш орқали аҳолига қулай транспорт хизмат кўрсатишни ташкил этиш бўйича 2022 йил 14 декабрда тузилган идоралараро тезкор штаб томонидан муаммоларни бартараф этиш бўйича тадбирларни туну кун амалга ошириш йўлга қўйилди.

Бугунга қадар: автобуслар сонини кўпайтириш учун вазирлик ва идоралардан қўшимча

55 та идоровий автобус вақтинча жалб этилди (Ички ишлар вазирлигидан 30 та, Миллий гвардиядан 25 та), “Самавто” заводидан 178 дона янги автобуслар олиб келинди;

хар куни йўловчиларни ташишга жалб этилган автобуслар сони кунлик ўрта ҳисобда 1 070 тага етказилди, натижада автобуслар ҳаракатланиш оралиғи 10 дақиқагача қискарди;

тирбанд йўналишларга 80 дона автобусларни қўшимча жалб этиш имконияти яратилди;

автобус саройлари Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардия ва Фавқулодда вазиятлар вазирлигига бириктирилди;

фуқаролар орасида олиб борилган тарғибот ишлари орқали тадбир бошидан 1042 нафар фуқаро ҳайдовчи сифатида ишга жойлашиш хоҳишини билдирган бўлиб, ўтказилган танлов ва тиббий кўрикнинг ижобий ҳулосасига биноан 655 нафар “D” ва “E” тоифали ҳайдовчилик гувоҳномасига эга бўлган янги ҳайдовчилар ишга олинди. Лавозимга янги тайинланган 230 нафар ҳайдовчи амалиёт ўташ учун автобус саройларига юборилди;



(Давоми 2-бетда)

“ТАХТАҚОРАЧА”ДА ЎҚУВ МАШҚИ

Ургут туманидаги “Тахтақорача” довонида Фавқулудда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими кўйи тизим хизматлари ҳамда тузилмаларининг тайёргарлик даражасини ошириш мақсадида махсус-тактик ўқув машқи ўтказилди.

Машқ 6 та ўқув нуктасида олиб борилди.

1-ўқув нуктасида вилоят ФВБга “Тахтақорача” довонида қор кўчкиси содир бўлганлиги

тўғрисида хабар келиб тушди. Хабар олингандан сўнг бошқарма тезкор навбатчиси томонидан Ургут тумани хокимлиги ва вилоятнинг тегишли ФВДТ хизмат-

ларига йигин сигнали берилди. Шунга кўра, ФВДТ хизматлари белгиланган ҳудудга етиб келди ва саф кўриги ўтказилди.

2-ўқув нуктасида довонда содир бўлган фавқулудда вазият натижасида кўчирилган аҳоли ҳамда довонда ҳаракат чекланиши оқибатида қолиб кетган фуқароларни иссиқ овқат ва чой билан таъминлаш учун кўчма чодир ўрнатилди. Машқ давомида яратилган шароитлар кўриб чиқилди.

3-ўқув нуктасида экстремал шароитда “Тахтақорача” довонининг 1115 км.да содир бўлган қор кўчкиси остида қолган фуқароларни кидирув-қутқарув, хавфсиз ҳудудларга эвакуация қилиш ҳамда биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича амалий машғулотлар ўтказилди. Айти ўқув нуктада вилоят ФВБ Махсус вазифаларни бажарувчи минтакавий қутқарув отрядининг қутқарувчилари ҳамда Ургут тумани тез-тиббий ёрдам хизмати ходимларининг ҳаракатлари кўриб чиқилди.



Кейинги ўқув нукталарида ҳам назарий ва амалий тадбирлар ўқув режаси дастурига мувофиқ ташкил қилиниб, иштирокчиларнинг фавқулудда вазиятларда тўғри ҳаракатланишга онд билим-малакалари янада мустаҳкамланди.

Амалий машқлар давомида йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати томонидан транспорт воситаларининг ҳаракатлари вақтинчалик тўхтатилди.

Тадбир якунида ўтказилган йиғилиш давомида машқ жараёнида эришилган ютуқлар билан бир қаторда камчиликларга ҳам тўхталиб ўтилди. Шунга кўра, йўл қўйилган камчиликларни бартараф қилиш юзасидан мутасадди соҳалар ва хизматларга зарур тавсия ҳамда кўрсатмалар берилди.

Илҳом ИСМОИЛОВ,
Самарқанд вилояти ФВБ бошлиғи, полковник.



УШБУ СОНДА:

TIBBIY KO'RIK

4-бет

БОЗОРДА УЧРАШУВ

5-бет

MUHI M TAVSIYALAR

7-бет

БИЗ БИЛГАН ВА БИЛМАГАН ДУНЁ

8-бет

АНОМАЛ СОВУҚ: АВТОСАРОЙЛАР ЗАРУР ВОСИТАЛАР БИЛАН ТАЪМИНЛАНДИ

(Давоми. Боши 1-бетда)

автобус йўналишларида йўл инфра-тузилмаси билан боғлиқ 86 та камчилик аниқланиб, 85 таси бартараф этилди ва 916 км. йўл чизиклари янгиланиб, қўшимча 157 дона йўл белгилари ўрнатилди.

тирбанд 5 та кўчада автобуслар учун алоҳида йўлаклар ажратилиб, барча зарурий йўл чизиклари ва йўл белгилари билан қайта жиҳозланди. Йўлаклар Юнусободдаги “Амир Темури” ва “Рихсий”, Мирободдаги “Фаргона йўли”, Шайхонтоҳурдаги “Алишер Навоий” ва Бектемирдаги “Бектемир шох” кўчаларида ташкил этилган. Шунингдек, автобуслар учун алоҳида йўлак ташкил этилган “А.Темури” ва “Рихсий” кўчаларининг йўл катнов қисмига жамоат транспортларининг эркин ҳаракатланишини таъ-

минлаш мақсадида автобуслар бўлагини ажратиб турувчи 1.1 йўл ётик чизиги 836 дона махсус тўсиклар фишкарлар ўрнатилди. Мазкур “А” йўлакларга 55 та интеллектуал видеокамера ўрнатилиб, енгил автомашиналар белгиланмаган жойларда тўхтаб туриши, автобусларнинг ҳаракатланишига тўсқинлик қилиш ҳолатларига барҳам берилмоқда;

бундай жойларда йўналишли транспорт воситаларининг ҳаракатига ҳалакит бермаслик шарти билан йўлга чиқиш, қатнов қисмининг четки ўнг томонида йўловчиларни чиқариш ва тушириш учун бу бўлакка ўтишга рухсат этилади;

бундан ташқари, ушбу йўлаклардан тезкор ва кечиктириб бўлмайдиган хизмат вазифасини бажариш вақтида кўк ёки қизил-кўк ва қизил рангли маёқчалар ёқилган ҳолда ҳаракатланаётган транспорт воситалари ҳам юриши мумкин;

йўналишли транспортлар ҳаракати учун мўлжалланган тасмаларда ҳаракатланиш ёки тўхташ билан боғлиқ қоидаларни бузган ҳайдовчилар учун жавобгарлик белгиланган.

Об-ҳавонинг аномал совиб кетиши шароитида аҳолига сифатли жамоат транспорти хизмати кўрсатиш бўйича кўйидаги ишлар амалга оширилди:

2023 йил 17 январь кuni ҳолатига кўра:

автобусларнинг йўналишда юзага келган носозликларни тезкор бартараф этиш мақсадида, 24 нафар техник ходимлардан иборат жами 8 та бригадалар тузилиб, уларга шатакка олишга мўлжалланган 16 та махсус техник ёрдам автомашиналари бириктирилди;

йўналишларда носозликка учраб, автосаройга қайтадиган автобусларни тезкор алмаштириш мақсадида, жами 39 та

автобуслар захираси яратилди;

аномал совуқ шароитида зарурий ҳисобланган 315 литр “антигель”, 2 860 литр “антифриз” ҳамда 150 литр “техник спирти” суюқликлари автосаройларга тарқатилди ва ҳозирда 300 литр антигель, 1 000 литр антифриз ҳамда 120 литр техник спирт, 5 000 литр двигатель мойи суюқликлари захираси тайёрлаб қўйилди. Шунингдек, 175 та шиналар, 142 та аккумулятор ва 2 998 та бошқа турдаги эҳтиёт қисмлар захираси яратилди.

Идоралараро тезкор штаб томонидан муаммоларни аниқлаш ва комплекс бартараф этиш чораларини кўриш ҳар бир автобус саройи кесимида давом эттирилмоқда.

Музифа СУЛТАНОВА,
ИИБ Жамоат хавфсизлиги
департаменти ахборот хизмати
бошлиги, подполковник.

БОШҚАРМАМ – КОРРУПЦИЯДАН ҲОЛИ ҲУДУД



Коррупция – дунё мамлакатларини хавотирга солаётган муаммолардан биридир. Ушбу иллат ҳар қандай давлат ва жамиятнинг ривожланишига жиддий путур етказиб қўйиши билан ҳам хавфли саналади. Шу бонс унга қарши қураш масаласи халқаро аҳамият касб этмоқда. Сирдарё вилояти ФВБда Гулистон ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида ўтказилган семинар айни мавзуга бағишланди.

Дастлаб Гулистон ҳарбий прокурори томонидан ўтган 2022 йил давомида вилоятдаги ҳарбий хизматчилар томонидан содир этилган ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик ҳолатларининг таҳлили ўқиб эшиттирилиб, вилоят ФВБ шахсий таркиби ўртасида ҳуқуқбузарликлар содир этилмаганлиги таъкидланди.

Сўзга чиққанлар шахсий таркиб ўртасида ҳарбий интизомни янада мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарлик ва коррупция ҳолатларининг олдини олиш тўғрисида сўз юритдилар.

Бундан ташқари, тадбир давомида ҳарбий хизматчилар иштирокида йўл-транспорт ҳодисалари содир бўлишининг олдини олиш, раҳбарлар таркиби томонидан ўз қўли остидаги шахсий таркиб ўртасида ижро интизомини сақлаш, турли жиноятлар содир этилишига йўл қўймайлик тўғрисида зарур тавсия ва тушунчалар бериб ўтилди.

Фазлидин ХОДЖАЕВ,
Сирдарё вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, майор.

Равшан ЖАЛИЛОВ,
Гулистон ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 23 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуроли Кучлари тизимида қонунийликни таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонида белгиланган талаблар ижросини таъминлаш мақсадида, Нукус ҳарбий прокуратурасига Қорақалпоғистон Республикасининг олис ҳудудларида жойлашган 23 та мактаб бириктирилган бўлиб, ушбу мактабларда Нукус ҳарбий прокуратураси ходимлари томонидан “Прокурор соати”лари ўтказилмоқда.

“ПРОКУРОР СОАТИ” ТАШКИЛ ЭТИЛДИ

Ана шундай тадбирлардан бири Нукус ҳарбий прокурори томонидан Қорақалпоғистон Республикасининг олис ҳудуди – Мўйноқ туманидаги 15-сонли умумтаълим мактабида ўтказилди. Унда ўқувчи-ёшларга Қуроли Кучлар ва суд-ҳуқуқ тизимида олиб борилаётган ислохотлар ҳамда юртимизда бугунги кунда ёшларга яратилаётган кенг имкониятлар ҳақида ҳуқуқий тушунчалар берилди.

Тадбир кизиқарли ва савол-жавобларга бой тарзда кечиб, ўқувчилар ўзларини кизиқтирган саволларга жавоб олдилар.

Шунингдек, мактаб ўқувчиларига ватанпарварлик, она-Ватанга садоқат туйғулари ҳамда ҳуқуқий саводхонликни оширишга доир китоблар тарқатилди.

Шухрат ЗОНРОВ,
Нукус ҳарбий прокурори, адлия полковниги.



ХАЛҚ ДАРДИНИ ҲИС ЭТИБ...

Давлатимиз раҳбари бошчилигида бўлиб ўтган киш мавсумида аҳолини энергия ресурслари билан таъминлаш бўйича кўрилаётган чора-тадбирларни кучайтиришга оид йўналишда бир қатор вазирлик ва идоралар вакиллари зиммасига мавжуд муаммоларни бартараф этиш юклатилган эди.



Яшнобод туманида ана шундай муаммоларни бартараф этиш учун мутасаддилар билан биргаликда тезкор амалий ишлар олиб борилиб, камчиликлар ўз вақтида бартараф этилмоқда.

Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисм ҳарбий хизматчилари томонидан маҳалла ҳудудида кўчма дала чодир тикланиб, фуқароларнинг совуқ кунларда маданий ҳордиқ чиқаришлари учун барча шароитлар яратилган.

Шунингдек, бундай вазиятда Тошкент ҳарбий прокуратураси прокурор-тергов ходимларининг ташаббуси билан 1 кун давомида маҳалла фуқароларини иссиқ овқат билан таъминлашга ўз хиссаларини қўшиш мақсадида, Яшнобод тумани “Ширинобод” маҳалла аҳолисига ош тарқатилди.

Ҳозирда “Ширинобод” маҳалласидаги электр узлишларини бартараф этиш ишлари давом эттирилмоқда.

Акбар БОБОЕВ,
Тошкент ҳарбий прокурори, адлия полковниги.

НОҚОНУНИЙ ФАОЛИЯТ

Пойтахтимизда яшовчи А.Х. 2021 йил октябрь ойидан 2022 йил 11 январга қадар хизмат мавқеидан фойдаланиб, қингир ишга қўл уради. Гап шундаки, у шериги билан ўрнатилган химоя тизимини четлаб ўтган ҳолда телекоммуникация тармоғидан фойдаланиш ва халқаро трафикни

ўтказиш мақсадида Ўзбектелеком АК хусусий корхона билан тузилган шартномага асосан корхонага берилган телефон рақамидан ноқонуний фойдаланган. Яъни, телекоммуникация тармоғидан қонунга хилоф равишда 25.5143.42 дақиқа халқаро чиқувчи қўнғирокларни амалга оширган. Натияжада

Ўзбектелеком АКга 20.411.47 АҚШ доллари миқдорида зарар етказган.

Судда А.Х. айбига мутлақо иқдорлик билдирмади. Аслида у хусусий корхона таъсисчи ва раҳбари сифатида бир аёлни тайинлаган. Бироқ у аёл корxonани бошқара олмаган. Шундан кейин у Тошкент шаҳар телефон тармоқларидан рақам олади ва халқаро қўнғирокла-

рини амалга ошира бошлайди. Шу ўринда фуқаровий даъвогар С.Б.нинг суддаги кўрсатмасини келтирсак.

– Хусусий корхона Ўзбектелеком АК томонидан берилган телефон рақамидан ноқонуний тарзда чет эл давлатлари билан сўзлашувлар амалга оширган. Натияжада Ўзбектелеком АКга қатта зарар етказган.

Суд судланувчига жазо тайинлашда унинг шахси, оила-

вий шароити, содир этилган жиноятнинг хусусияти ва қилмишидан пушаймонлигини эътиборга олди. А.Х. 3 йил муддатга озодликдан маҳрум қилинди. Агарда у тўғри ишлаб, халол даромад топганида, бундай машамалар бўлмасди.

Завқиддин ЯРАШЕВ,
жиноят ишлари бўйича
Янгиҳаёт туман судининг
судьяси.

ИЛЛАТГА ҚАРШИ

Қашқадарё вилояти ФВБ ва унинг ҳудудий бўлимларида хизмат қилаётган харбий хизматчи ва хизматчилар ўртасида ҳар ой “Биз коррупцияга қаршимиз” шиори остида мутасадди ташкилотлар мутахассисларини жалб этган ҳолда тарғибот-ташвиқот ишлари, маънавий-маърифий тадбирлар, учрашув ва давра суҳбатлари ташкил этиб келинмоқда.

Мазкур тадбирлар давомидида мавзуга оид қонуни ҳужжатлари ҳамда вазирликнинг тегишли буйруқлари мазмун-моҳияти ўрганилиб,



белгиланган устувор вази-фаларнинг ўз вақтида сифатли бажарилиши, тизимда коррупцияга қарши курашиш, хизмат самарадорлигини ошириш, шахсий таркиб ўртасида коррупция билан боғлиқ нохуш, салбий ҳолатларнинг олдини олиш, тамағирлик, фирибгарлик ва бошқа жиноятлардан сақланиш, хизмат вази-фаларига сидқидилдан ёндашиш юзасидан тушунтириш ишлари олиб бориляпти.

Ҳозирда бу каби тадбирлар жойларда қизгин давом эттирилмоқда.

Б.МАҲМАТҚУЛОВ,
Қашқадарё вилояти
ФВБ ШХБ бош
инспектори, майор.
Ў.ЮЛДАШЕВ,
Дехқонобод тумани
ФВ бўлими бўлинма
бошлиғи, майор.

SEMINAR

Навоий вилояти FVB, бoshqарmaning ҳудудий шаҳар ва туман favqulodda vaziyatlar bo'limlari hamda yong'in-qutqaruv qism boshliqlari – korrupsiyaga qarshi kurashish komissiya tarkibi ishtirokida Navoiy Harbiy prokurori adliya polkovnigi J.Urinov hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 12-yanvardagi qarori hamda “Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 11-maydagi qarorini o'rganish yuzasidan seminar o'tkazildi.



Tadbir davomida 2023-yilning I choragi davomida “Mening boshqarmam – korrupsiyadan holi hudud” mavzusida joylarda profilaktik tadbirlar o'tkazish yuzasidan korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari raislariga ko'rsatmalar berildi.

Shu bilan birga, ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish profilaktik tadbirlarni harbiy xizmatchi va ishchi-xizmatchilarning ishlab chiqilayotgan rahbariy hujjat bilan muntazam ravishda tanishtirib borish, bundan tashqari, qo'l ostidagi xodimlar tarbiyasi bilan o'z vaqtida shug'ullanish, xodimning xulqi va xatti-harakatlarini, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtlarida ham nazorat qilish va oilaviy sharoiti bilan yaqindan tanishib borish va o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish lozimligi uqtirildi.

Y.ABDULLAYEV,
Navoiy viloyati FVB
Shaxsiy xavfsizlik bo'limi
bosh inspektori, kapitan.

ПРЕСС-ТУР

“Қамчик” довоида оммавий ахборот воситалари ходимлари, журналист ва блогерлар учун Пресс-тур ташкил этилди.

Унда Наманган вилояти ФВБ бошлиғи генерал-майор Қосимали Аҳмедов, “Қамчик” махсус кидирув-кутқарув бошқармаси бошлиғи полковник Ҳасан Бобонов, вилоят ҳокими матбуот котиби Фарходжон Мамадалиев ва Поп тумани ҳокими Аъзамжон

Султонов, шунингдек, вилоят ФВДТ раҳбар ходимлари иштирок этдилар.

Илк манзил “Қамчик” довоида дала шароитида ташкил этилган чодирлар бўлди. Бу ерда иштирокчилар фавқуллода вазиятларда фуқаролар учун махсус турар жойлар, озик-овқат омборлари, исиниш ва рухий кўмак ҳамда оналар ва болалар хоналари билан яқиндан танишдилар.

Пресс-тур якунида журналистларни қизиқтирган саволларга мутасадди раҳбар ҳамда ходимлар томонидан жавоб берилди.

Қахрамон САТТОРОВ,
Наманган вилояти ФВБ
ОАВ ва ЖТБХҚГ
бошлиғи, капитан.



КИТОВ YARMARKASI



FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan xizmatchi va harbiy xizmatchilarning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu munosabat bilan Markazda tahsil olayotgan xizmatchi va harbiy xizmatchilar

uchun “Kitobga mehr” shiori ostida Samarqand shahridagi “Kitob olami” MChJ xodimlari bilan hamkorlikda kitob yarmarkasi o'tkazildi.

Yarmarkada tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan kitoblarni xarid qildilar.

J.SAIDOV,
FVV Akademiyasi huzuridagi
BT va MOM bo'linma boshlig'i,
podpolkovnik.
B.ISHNAZAROV,
Markaz ARM boshlig'i,
kichik serjant.

ЭЗГУ МАҚСАД ЙЎЛИДА

Жорий йилнинг 16 январь кунига қадар Қашқадарё вилояти ҳудудида жами 75 та ёнгин ҳолати қайд этилиб, ўтган йилга нисбатан 43 тага ошган. Содир бўлган ёнгинлар натижасида 2 та фуқаронинг куйиш таъжароҳати олиш ҳолати қайд этилди. Ёнгинларнинг содир бўлиш объектлари ўрганилганда, 48 та ёнгин аҳоли яшаш хонадонларига тўғри келади.

Маълумот ўрнида айтиб ўтиш керакки, айнан киши мавсумида ўртача ҳар 3 та содир бўлган ёнгиннинг биттаси иситиш мосламаларидан нотўғри фойдаланиш ёки носоз ва ностандарт иситиш мосламаларининг ишлатилишидан келиб чиққан бўлиб, аянчли оқибатларга олиб келган.

Айни шу каби ходисаларнинг олдини олиш мақсадида вилоят Фавқуллода вазиятлар, Ички ишлар ва Миллий гвардия бошқармалари ҳамда “Худудга таъминот” Қашқадарё филиали мутахассислари ҳамкорлигида барча туркумдаги объектларда, айниқса, кўп қаватли уйлар ва яқка тартибдаги уй-жойлар, бозорлар, йирик савдо мажмуалари

ва аҳоли кўп тўпланадиган бошқа объектларда кенг камровли профилактик тадбирлар амалга оширилмоқда.

Тарғибот-тушунтириш ишлари давомида фуқароларга мутахассислар томонидан ишлаб чиқилган тарқатма материалларидан фаол фойдаланилиб, шу кунга қадар 12 турдаги 50 мингдан ортиқ эслатма ва буклетлар тарқатилди.

Қаровчиси йўқ, ёлғиз яшовчи қария ва ногиронлар, рухий касалликлар диспансерларида рўйхатида турувчи ва спиртлик ичимликларга ружу қўйган фуқароларга алоҳида эътибор қаратилиб, улар истикомат қилаётган 8045 та турар жойлар ўрганилди. Аниқланган камчиликларни бартараф этишга алоҳида эътибор қаратилди.

Эзгу мақсад йўлидаги бу каби тадбирлар ҳозирда изчил давом эттирилмоқда.

Ҳусан БОБОНОВ,
Қашқадарё вилояти
ФВБ бошлиғининг
биринчи ўринбосари –
Штаб бошлиғи,
полковник.



OLIS QISHLOQLARDA

Samarqand viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi xodimlari olis hududlarda ham profilaktik tadbirlarni jadallik bilan davom ettirmoqdalar.

Jumladan, Bulung'ur tabiiy gaz hamda o'tindan tumanidagi “Lalmikor” mahallasida markaz o'qituvchisi Sanjar Adilov tomonidan aholi o'rtasidagi foydalanishda is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib boril-

di. Ish bilan band bo'lmagan aholi qatlamlari bilan davra suhbatini o'tkazish mobaynida eslatma materiallari ham tarqatildi.

Sevara ADILOVA,
Bulung'ur tumanidagi
25-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi.

GARNIZON BIRINCHILIGI

Andijon viloyati FVB tomonidan stol tennisi bo'yicha garnizon birinchiligi bo'lib o'tdi. Bahslar yakka hamda juftlik ishtirokchilar yo'nalishida o'tkazildi.

Musobaqada boshqarma qutqaruv otryadi hamda Andijon shahar, Asaka, Shahrixon, Izboskan, Jalaquduq, Bo'ston tumanlari FV bo'limlari xodimlari ishtirok etdilar.

Yakka yo'nalish bo'yicha 1-o'rinni Asaka tumani FV bo'limi, 2-o'rinni viloyat FVB hamda 3-o'rinni yong'in-qutqaruv otryadi egalladi.

Juftliklar o'rtasida 1-o'rin Asaka tumani FV bo'limiga nasib etgan bo'lsa, 2-o'rinni Izboskan tumani FV bo'limi vakillari qo'lga kiritdilar. 3-o'ringa yong'in-qutqaruv otryadi munosib ko'rildi.

Musobaqa yakunida qatnashchilarga boshqarma rahbariyati



tomonidan faxriy yorliq, medal, kubok hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

S.ZULUNOV,
Andijon viloyati FVB OAV
va JTBHQG boshlig'i, mayor.

BELLASHUV

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligi Qashqadaryo viloyati kengashi tashabbusi bilan yosh harbiy xizmatchilar o'rtasida "Zakovat" intellektual bellashuvi bo'lib o'tdi.



FVBning "Zukko qutqaruvchilar" jamoasi qo'lga kiritdi.

2-o'rin viloyat IIBning "Qalqon" jamoasiga nasib etdi. 1-o'ringa Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining "Yosh aviatorlar" jamoasi munosib ko'rildi.

G'oliblarga

Unda, viloyat FVB, IIB, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizligi xizmati boshqarmalari hamda Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti kursantlaridan iborat 7 ta jamoa o'z bilimlarini namoyish etdi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bellashuvda 3-o'rinni viloyat

Qarshi harbiy prokuraturasi hamda Yoshlar ittifoqi viloyat kengashining esdalik sovg'alari va faxriy yorliqlari topshirildi.

Rahimbek ESHONQULOV,
Qashqadaryo viloyati FVB inspektori, katta leytenant.

ТАЙЁРГАРЛИК – БОШ МАҚСАД

ФВВ Академияси хузуридаги Бошланғич тайёрлик ва малака ошириш марказида вазирлик тизимидаги ёнгин-қутқарув бўлиmlарига янги қабул қилинган ва лавозимга тайинланган ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг бошланғич курс тайёргарликдан ўтаётган таркиби билан билим савиясини ошириш мақсадида, жисмоний ва ёнгин қутқарув тайёргарлиги бўйича машғулотлар ўтказиб келинмоқда.



Ўқув машғулотлари давомида ҳар бир ёнгин-қутқарувчиға ёнгин-қутқарув, авария-

қутқарув техникалари ҳамда қурилмалари билан ишлаш усуллари, ёнгин-қутқарув саф тайёргарлиги бўйича мейёрларини бажариш тартиби ўргатиб борилмоқда. Тингловчилар ўз хизмат фаолиятида қўлланиладиган техникалар ва қутқарув воситаларининг тактик-техник хусусиятлари, ишлатиш қоидалари ҳамда хавфсизлик чоралари бўйича ўз билиmlарини оширмоқдалар.

У.СОЛИЕВ,
Марказ цикл катта ўқитувчиси, подполковник.

ФВВ Академияси хузуридаги Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказига биринчи ўқув йиғинига жалб қилинган тингловчилар таркиби билан очик семинар машғулотли ўтказилди.

Унда Юртбошимиз Мурожаатномасида келтирилиб ўтилган соҳага дахлдор вазифалар ва йўналишлар таҳлил қилиниб, худудлардаги ҳолатлар, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, келгусидаги мақсадлар хусусида соҳа педагоглари томонидан кенг тушунчалар бериб ўтилди.

Семинар муҳокамасида мутасадди ташкилотларнинг ҳам

СОҲА ИСТИҚБОЛЛАРИ



таълим сифатини педагогик технологиялар асосида юқорига

олиб чиқиш юзасидан таклиф ва мулоҳазалари кўриб чиқилди.

Машғулотда илгор тажрибалар тарикасида, фавқулодда вазиятларда юқори ҳаракатчанлик натижалари, курсаткичлари юқори бўлган ривожланган мамлакатлар соҳа ходимларининг фаолияти ва замонавий техник асбоб-анжомлари акс эттирилган видеолавҳалар намойиш этилди.

Ш.АҲМЕДОВ,
Марказ "Махсус фанлар" цикли бошлиғи, подполковник.

TIBBIY KO'RIK

Navoiy shahar tibbiyot birlashmasi hamda "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya fondi viloyat mintaqaviy filialining malakali shifokorlari tomonidan viloyat FVB harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari Navoiy shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.



Mazkur ko'rikda jami 80 nafardan ortiq harbiy xizmatchi va

ularning 200 nafarga yaqin oila a'zolari ishtirok etdi.

Tibbiy ko'rik yakuniga ko'ra, mutaxassis shifokorlar tomonidan jami 7 nafar harbiy xizmatchining oila a'zolarini aniqlangan kasalliklar tashxisi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalarida sog'lig'ini tiklash hamda 1 nafar nogironligi bo'lgan farzandlarini imtiyozli tartibda davolash yuzasidan yo'llanmalar rasmiylashtirildi.

Hamkorlikdagi tadbirlar davom etmoqda.

M.ABDIYEV,
Navoiy viloyati FVB xodimi, katta leytenant.

Qashqadaryo viloyati FVB xodimlari tomonidan tunda faoliyat olib borilayotgan manzillarda, odamlar qoladigan maskanlarda tungi profilaktik va nazorat tadbirlari olib borilmoqda. Fuqarolarga yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish tun davomida hushyorlikni oshirishlari tushuntirilib, tavsiyalar berilmoqda.

TUNGI NAZORAT

Albatta, tunda xizmat olib borayotgan ishchi-xodimlar sergakligini oshirishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishlari lozim. Bu esa favqulodda vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.



Bahodir MURODULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo'linma boshlig'i, katta leytenant.

ЁРДАМ КЎРСАТИЛДИ

Сирдарё вилояти ФВВ диспетчерлик хизматиға келиб тушган хабарға кўра, Мирзаобод тумани "Тошкент" МФЙ худудида ҳаракатланиб кетаётган "Дамас" русумли автомобиль хайдовчиси сирпанчик йўлда бошқарувни йўқотиб, автомобиль йўл ёқасидан ўтувчи очик зовурға тушиб кетган.

Воқеа жойиға зудлик билан бошқарма ёнгин-қутқарув отряди қутқарувчилари етиб борган ва қўрилган тезкор чоралар натижасида автомобиль зовурдан олиб чиқилган. Ҳодиса оқибатида ҳеч ким тан жароҳати олмаган.

Давронбек СУЛАЙМОНОВ,
Сирдарё вилояти ФВВ ахборот хизмати бошлиғи, катта лейтенант.
Аброр АБДУКАРИМОВ, бошқарма бўлим техниғи, оддий аскар.

BAG'DOD TADBIRLARI

Bag'dod tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan qish mavsumida favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida aholi o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Bu gal ham tuman "Saman-darak" MFY binosida mutasaddi tashkilotlar hamda tuman FV bo'limi xodimlari ishtirokida

Farg'ona viloyati FVB boshlig'i podpolkovnik I.Qo'chqorov boshchiligida MFYning Jiydali, Ma'rifat, Ziyolilar, Shirinbuloq,



Hunarmandlar va Yangi hayot ko'chalariga profilaktik tadbirlar olib borildi.

Shundan so'ng ishchi guruh tomonidan 11-sonli DMTT va 27-umumta'lim maktabi ishchi-xodimlariga yong'in xavfsizligini ta'minlash, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borildi.

Muslim ERGASHEV,
Bag'dod tumani FV bo'limi boshlig'i kapitan.

Mirjalol XUDOYQULOV,
Farg'ona viloyati hokimligi "Qabullar uyi" YXTTEB katta inspektori, kapitan.

ZARUR SABOQ

Namangan shahar FV bo'limi 2-yong'in-qutqaruv qismida 2023-yil o'quv yili boshlanishi munosabati bilan viloyat FVB, shahar FV bo'limi xodimlari ishtirokida mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishni o'rgatish va yo'riqnomadan o'tkazish tartiblariga oid o'quv seminari bo'lib o'tdi.

Unda viloyat FVB boshlig'i general-mayor Qosimali Ahmedov so'z olib, joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar bo'yicha to'xtaldi va har bir xodim o'ziga qo'yilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi lozimligini ta'kidladi.

Shundan so'ng tegishli o'quv nuqtalarida yong'in, chaqnash va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etish

jarayonida to'g'ri ish tashkil qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etgan holda harakatlarni bajarish yuzasidan ishtirokchilarga tushuntirish va yo'riqnomalar berib o'tildi.

Mazkur seminar viloyatning barcha tumanlarida o'tkazildi.

Qahramon SATTOROV,
Namangan viloyati FVB
OAV va JT B HQG
boshlig'i, kapitan.

БОЗОРДА УЧРАШУВ

Сирдарё вилояти ФВБ вилоят Санитария-эпидемиология ошйишталиги ва жамоат саломатлиги бошқармаси ходимлари ҳамкорлигида Гулiston шаҳридаги дехқон бозорларида профилактик тадбирлар ўтказилди.



Тадбирлар давомида бозорлар масъул ходимларига келгусида сифат сертификати бўлмаган ва уй шароитида тайёрланган консерва махсулотлари сотилишининг олдини олиш бўйича кўрсатмалар берилди.

Аҳоли ўртасида овқатдан захарланиш ҳамда ботулизм касалликлари билан боғлиқ favqulodda vaziyatlarining oldini olishga karatilgan pro-

filaktik taдбирлар davom et-tirilyapti.

Давронбек СУЛАЙМОНОВ,
Сирдарё вилояти ФВБ
ахборот хизмати бошлиги,
катта лейтенант.

Жаҳонгир РОПИЕВ,
Янгйер шаҳар ФВ бўлими
бошлиги,
подполковник.

ДАРЁ МУХОФАЗАСИ

Наманган вилояти Учқўрғон тумани худудидан оқиб ўтувчи Норин дарёсида асосан қиш ҳамда баҳор фаслларида дарё ўзанида сув сатҳининг ошишини ҳисобга олган ҳолда туман favqulodda vaziyatlar davlat kuyi тизимлари техникалари куч ва воситаларидан тузилган йиғма командалар томонидан дарё ўзанини тозалаш ва қирғоқ мустаҳкамлаш ишлари амалга ошириб келинади.



вилоят ФВБ томонидан донимий назоратга олинган.

Айни кунларда Норин дарёсининг туман худудидан оқиб ўтувчи чап қирғоги муҳофаза зонасининг 150 метр масофасида 8 та махсус техникалар ёрдамида тош-шағал қоришмаси билан дамба тиклаш ишлари бажарилмоқда.

Ушбу дарё муҳофаза зонасида олиб борилаётган дамба тиклаш ишлари

Қаҳрамон САТТОРОВ,
Наманган вилояти ФВБ
OAV va JT B HQG бошлиги, капитан.

Ўзбекистон Республикаси ФВБ, Тошкент вилояти ФВБ ва туман ФВ бўлими масъуллари ҳамкорлигида Бўка тумани худудида жойлашган "Истиқлол дехқон бозори"да тадбиркорлар ва фуқаролар билан favqulodda vaziyatlar va ёнгинларнинг олдини олиш, ёнгин хавфсизлиги талабларига риоя этиш, электр қурилмалари, маиший газ баллонларидан белгиланган тартибда фойдаланишга қаратилган профилактик тадбир ўтказилди.

МУҲИМ ҚОИДА

Тадбирда бозор маъмурияти ва тадбиркорларга республика худудида фаолият олиб бораётган бозорларда содир бўлган ёнгинлар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари, оқибатлари туғрисида маълумотлар берилиб, содир бўлган ёнгинлар натижасида тадбиркорларга кўп миқдорда моддий зарар етганлиги, ёнгинлар асосан тадбиркорларнинг эътиборсизлиги натижасида келиб чиққанлиги тушунтирилди.

Шунингдек, savdo дўкони эгаларига дўконларда носоз, ностандарт электр қурилмаларидан фойдаланмаслик, электр



симлари ва кабелларини электр ускуналарини ўрнатиш қоидалари талаблари асосида ўрнатиш ва химоялаш, savdo дўконларини бирламчи ёнгин ўчириш воситалари билан таъминлаш айтиб ўтилди.

Savdo комплекси худудидаги ёнгин ўчириш калконлари кўздан кечирилганда, бирламчи ёнгин ўчириш воситалари билан тўлиқ таъминланмаганлиги, бозор худудида ёнгин ўчириш автомобили эркин ҳаракат қилолмаслиги аниқланиб, бозор маъмуриятига камчиликларни бартараф қилиш бўйича тақдимнома берилди ва юқори турувчи ташкилотларга ахборотнома киритилди.

Бекжон ЭРГАШОВ,
Бўка тумани ФВ
бўлими бошлиги
ўринбосари, капитан.

МИНГБУЛОҚДА ТАШАББУС

Наманган вилояти Мингбулоқ туманидаги 14-умумтаълим мактабида "Табиий ва техноген хусусиятли favqulodda vaziyatlar sodir бўлганда ўқитувчи ва ўқувчиларни туғри ҳаракат қилишга ўргатиш" мавзусида "Фуқаро муҳофазаси куни" тадбири ўтказилди.



Тадбирлар давомида умумтаълим мактаби ўқувчилари билан уй шароитида ва мактаб ошхонасида тайёрланган консерва ҳамда қолбаса махсулотларидан захарланиш, иситиш мавсумида ис газидан захарланиш, чакнаш, ёнгин содир бўлишининг олдини олишга оид мавзуларда очик дарслар ўтказилди.

Шунингдек, мактаб худудида ёнгин содир бўлиши ва уни бартараф этиш вақтида мактаб ўқитувчилари ва ўқувчиларига бирламчи ёнгин ўчириш воситаларидан туғри фойдаланиш бўйича тушунчалар берилди.

Ёнгин ўчириш воситалари ва техникалари ҳамда кутқарув асбоб-анжомларининг кўргазмаси ташкил этилиб, ўқитувчи ва ўқувчиларга асбоб-анжомларнинг ишлатилиши ўргатилди.

Ғулможон ИСМАЙЛОВ,
Мингбулоқ тумани ФВ
бўлими бошлиги ўринбосари,
подполковник.

ҚУРИЛИШ ОБЪЕКТЛАРИДА

Дехқонobod тумани ФВ бўлими томонидан туман худудида янги қурилаётган ва реконструкция қилинаётган қурилиш объектларида қурувчилар иштирокида ис газидан захарланиш, ҳаво-газ аралашмасининг чакнаши, ёнгинлар, шунингдек, киш мавсумида юзага келиши мумкин бўлган кўнгилсиз вазиятларнинг олдини олиш юзасидан тарғибот-ташвиқот ишлари, назорат текширувлари ўтказиб келинмоқда.

Ушбу тадбирлар давомида қурилиш объектларида, қурувчи ва ишчилар вақтинча яшаш вагонларида хавфсизликни таъминлаш, электр тармоқларидан туғри фойдаланиш қоидаларига қатъий риоя этиш бўйича кўрсатма ва тушунтиришлар берилмоқда.

Ш.ТОҒАЕВ, Дехқонobod тумани ФВ бўлими бошлиги ўринбосари, майор.
Ю.МЕНГЛИЕВ, бўлим НТБ бошлиги, катта лейтенант.

Тошкент вилояти Ўртачирчиқ тумани ФВ бўлимига "Gentra" русумли автомобиль хайдовчиси йўлларнинг музлаганлигини ниобатга олмаган ҳолда тезликни сабабсиз ошириши оқибатида автомобиль туманидаги "Чегара" маҳалласидан оқиб ўтувчи "Қумарик" номли пчки ариққа тушиб кетганлиги ҳақида хабар келиб тушган.

БАРТАРАФ ЭТИЛДИ



Шунга кўра, бўлимининг тезкор-қидирув отряди воқеа жойига зудлик билан етиб бориб, автомобиль махсус техникалар ёрдамида ариқдан олиб чиқилди.

Ҳодиса оқибатида ҳалок бўлганлар ва тан жароҳати олганлар йўқ.

З.ТЕШАБОВЕВ, Ўртачирчиқ тумани ФВ бўлими бошлиги, подполковник.
А.ЗОКИРОВ, бўлим ПванБ инспектори, катта сержант.

TARG'IBOT

MCHJ «Uz-Kor Gas Chemical» QK va uning tasarrufidagi obyektlar binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi inspektorlari tomonidan Mo'ynoq tumanining Orol dengizi hududidagi "Surgil" gazni kompleks tayyorlash qurilmasiga qarashli ishchilar yotoqxonasi ishchi-xizmatchilari bilan targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi.

Tadbirlar davomida yong'inlarning oldini olish yuzasidan maxsus ko'rgazmalar tashkil etilib, isitish qozonlari, elektr energiyasidan to'g'ri foydalanish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda harakatlanish bo'yicha tushunchalar berildi.

T.ANNAKULOV, MCHJ «Uz-Kor Gas Chemical» QK va uning binolarida YoXTTEB inspektori, katta leytenant.





Farg'ona tumani "Shohimardon" va "Yordon" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ijtimoiy soha obyektlari, turar joy binolaridagi aholi yashash xonadonlarida yong'inlar, is gazidan zaharlanish hamda gaz va havo aralashmasi chaqnashining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar olib borildi.

ISHCHI GURUH FAOLIYATI

Ishchi guruh tomonidan "Shohimardon" mahallasidagi 1-umumta'lim maktabi, tuman sog'liqni saqlash birlashmasiga qarashli 64-oilaviy poliklinika, 6-MTM hamda "Yordon" mahallasidagi viloyat Pulmonologiya shifoxonasi, 2-umumta'lim maktabi va tuman yo'llardan foydalanish korxonasi qarashli "Shohimardon" yo'l bo'limlarining holati xavf yoqilg'i mahsulotlari mavjudligi va yong'in xavfsizligi yo'nalishlari bo'yicha o'rganilib, tegishli tashkilot va muassasa rahbarlariga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

L.HAMDAMOV,

Farg'ona tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

PROFILAKTIKA

"Hududgazta'minot" AJ Quvasoy shahar bo'limi hamda shahar FV bo'limi hamkorligida shahar hududida tunggi profilaktik tadbirlar olib borildi.



Ushbu tadbirlar davomida shahar markaziy shifoxonasining issiqlik ta'minoti ko'zdan kechi-

rib, mas'ul xodimlarga texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari tushuntirildi.

Shuningdek, AJ Quvasoy shahar bo'limiga kelib tushgan murojaatga asosan, fuqaro xonadoniga yetib borib, xodimlar tomonidan nosozlikni bartaraf etish ishlari amalga oshirildi.

R. MELIBOYEV,
Quvasoy shahar FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

YONG'IN HAQIDA BILASIZMI?

Yong'in – bir zumda shiddat bilan ro'y beradigan va tez tarqaladigan yonish jarayoni. Moddiy boyliklarni yo'qotadi va inson hayoti uchun xavf soladi. yong'inga, asosan, olovdan ehtiyotsizlik bilan foydalanish, elektr va gaz asboblardan hamda ishlab chiqarish jihozlaridan foydalanishning qoida va me'yorlarini buzish, moddalar (materiallar) ning o'z-o'zidan alanganishi sabab bo'ladi.

Yong'in ishg'ol qilgan fazo shartli ravishda zonalarga: faol yonish, issiqlik ta'sir etuvchi va tutun bilan qoplash zonalari bo'linadi. Faol yonish zonasi yuqori issiqlik va tutun hosil qiladi. Bunda materiallar ko'pincha atmosfera havosining kislorodi bilan o'zaro ta'sirlashib tutaydi, alanganadi, natijada issiqlik va tutun hosil bo'ladi. Yonayotgan qurilmalar va materiallar issiqlik ta'sirida qiziydi va alanganadi, yonmaydiganlari deformatsiyalanadi. Bu zonadagi eng yuqori tra tashqi yong'inda sodir bo'lib, qattiq materiallar 1000°-1250°, suyuqliklar 1100°-1300°, yonuvchi gazlar 1250°-1350° tra chiqaradi.

Faol yonish zonasini boshqa zona - issiqlik ta'sir etuvchi zona qurshab oladi. Uning issiqlik ta'siri taxminan 60-80° pastroq

bo'lib, atrofdagi obyekt va insonlar uchun xavfli bo'ladi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan yonish mahsuloti (tutun) bilan qoplash zonasini hosil qiladi. Tutun tarkibida, odatda, azot, kislorod, uglerod oksidi, karbonat angidrid, suv bug'lari, kul va b. moddalar bo'ladi. Tutun tarkibiga kiruvchi to'la va chala yonish mahsulotlari juda zaharli, ayniqsa, polimer materiallar yonganda o'ta zaharli bo'ladi. Ba'zi hollarda chala yongan mahsulotlar, masalan, uglerod oksidi kislorod bilan yonuvchi va portlashga xavfli aralashma hosil qilishi mumkin.

Yong'in va uni bartaraf qilish tadbirlari haqida barchamiz bilishimiz lozim.

Rustam ISAEV,
Toshkent shahar FVB
YoN va PB mutaxassisi,
katta serjant.

Samarqand tumani mavjud 74 ta mahalla fuqarolar yig'inida 260 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Tumanda jami 75 ta kўp qavatli turar joy binolari mavjud bo'lib, uylarning barchasi tabiiy gazga ulangan. Tuman aholisining 47 foizi gazlashtirilgan va qolganlariga jadval asosida sulyotirilgan gaz etkazib berilmokda.

ДАВР ТАЛАБИ

Samarqand tumani tashkil kilingan tezkor shabga har bir mahalla kesimida mas'ullar birlashtirilgan hamda kunlik ma'lumotlar olinib, gaz, suv, elektr energiyasida sodir bulgan avariylar maxsus guruhlar tomonidan bartaraf etilmokda.

Samarqand tumani FV b'limi xodimlari yurtimizda kuzatilaётган совуқ об-хаво шароитида aholi xonadonlarida ishlatilaётган isitish uskunalarini kuzdan kechirib, fuqarolarga tushuntirishlar bermokdalar.

Xavfsizlik – davr talabi. Shunday ekan, hozirda bu boradagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Жасур РАХМОНОВ, Самарқанд тумани ФВ
b'limi boshlig'i, podpolkovnik.

2022-yil davomida Navoiy viloyati huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan viloyat hududida pirotexnika vositlarini noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'yicha tezkor tadbirlar o'tkazilib, natijada jami 373 000 dan ortiq pirotexnika vositasi daliliy ashyo sifatida ushlab qolindi.

YO'Q QILINDI



Shundan viloyat huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan musodara qilingan 142 824 dona turli xildagi pirotexnika vositalari sudning tegishli qarori asosida maxsus komissiya ishtirokida yo'q qilindi.

Eslatib o'tamiz, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, mamlakatimizga olib kirish, tashish, saqlash va sotish taqiqlangan. Bunday harakatlar uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 185-moddasi hamda Jinoyat kodeksining 250-moddasida tegishli javobgarlik va jazo choralari belgilangan.

R.TOSHNAZAROV, G'.ISROILOV,
Navoiy viloyati FVB xodimlari.

Farg'ona shahrining Abdulla Qodiriy mavzesida shahar FV bo'limi, mahalla fuqarolar yig'ini va "Hududgaz" AJ xodimlari tomonidan qish mavsumida favqulodda vaziyatlar, yong'inlar hamda is gazidan zaharlanish kabi holatlarning oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar olib borildi.

MAVSUM MAVZUSI



Mazkur tadbirlarda viloyat FVB boshlig'i podpolkovnik I.Qo'chqorov ishtirok etib, ishchi-xodimlar va fuqarolar bilan tushuntirish ishlari olib borishda ularga is gazidan zaharlanish, yong'inlarning oldini olish bo'yicha yo'riqnomalar berish, eslatma materiallar tarqatish topshiriqlari berildi.

A.APPONOV,
Farg'ona shahar FV bo'limi bo'linma
boshlig'i, kapitan.

ЁНГИН ХАВФСИЗЛИГИ

Био ва иншоотларни куришда ёнгин, техника ва меҳнат муҳофазаси борасидаги хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш фоят муҳим.

Бу, аввало, талафотларнинг олдини олади, қолаверса, иморатларнинг мукамал ва мустахкам кад ростлашини таъминлайди.

Даставвал қурилаётган уйлarning оловга бардошлилиги, ёнгинга қарши оралик масофалар сақланиши ҳамда ёнгин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиниши шарт.

Қурилишда вақтинчалик тортилган электр симларидан фойдаланишнинг ҳам қатъий талаблари бор. Уларни тортишда изоляцияланган симлар маҳкам тиргович ёки трослар илинади. Электр сими иш жойидан 2,5 метр, ўтиш жойларидан 3 метр ва ўтиш йўлакларидан 6 метр баландликда бўлиши керак. Ер, пол ёки қопламадан 2,5 метр пастроқ баландликда бўлган электр кабель ва симлар шикастланишдан химояланган бўлиши керак.

Ҳар қандай носоз ва қўлбола жиҳозлар ҳамда асбоб-ускуналардан фойдаланишга йўл қўйилмайди. Бу каби қоидаларга амал қилар эканмиз, қурилиш ва бунёдкорлик ишларида хавфсизликни таъминлаган бўламиз.

Турсинали Жўраев,
Чўст тумани ФВ бўлими бoshlig'i,
podpolkovnik.

Абдуқодир Турғунов,
бўлим НТБ бoshlig'i в.в.б.,
катта сержant.

БОЛАЛАРНИ ЁЛГИЗ ҚОЛДИРМАНГ!

Болалар шўхлиги билан боғлиқ ёнгинларнинг келиб чиқишига асосий сабабларнинг бири катталарнинг фарзандларига бўлган эътиборсизликлари ёки фарзандларининг айрим қоида-талабларни ўзлаштирамаганликларидандир.

Шундай экан, ёш болаларни уйда қаровсиз қолдирманг ва уларга олов билан боғлиқ уй юмушларини берманг; болалар олдида сигарет чекманг ва улар олдида оловли ишларни бажарманг; электр розеткалар тешикларини махсус пластик қопламалар билан беркитиб қўйинг; болаларга оддий ёнгин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш юзасидан доим тушунчалар бериб боринг ва болалар билан ёнгин вақтида ҳаракатланиш тартиблари бўйича машғулотлар ўтказинг; уйда ёнгин содир бўлганда болаларнинг хона ичида қолиб кетмасликларини, омборча ва шкаф ичига ёки қаравот тагига беркинмасликларини тушунтириб боринг ва ҳ.к.

Ота-оналар фарзандларини жавобгарликни ҳис қилишга ўргатиши, улар билан олов ва унинг хусусиятлари, ёнгиннинг келиб чиқиш омиллари борасида ҳаётий мисоллар асосида суҳбатлар ўтказиб туриши лозим.

Келтирилган қоидаларга риоя этиш – вояга етаётган ёш авлод ҳаётини асраш, қолаверса, уй-жойларни ёнгиндан муҳофаза қилиш, демакдир.

С.ЗУЛУНОВ,
Андижон вилояти ФВБ
ОАВваЖТБХҚГ бoshlig'i, майор.

MUHIM TAVSIYALAR

Qo'lbola va nosoz gaz, elektr isitish moslamalaridan aslo foydalanmang.



Isitish pechlari va ularning mo'riklarining sozligi, mo'riklarining turli buyum va to'siqlar bilan berilib qolmaganligiga doim e'tibor qaratilg.

Mutaxassislarni jalb etgan holda isitish pechlari va ularning mo'riklarini yana bir bor tozalash choralari ko'ring. Isitish moslamalaridan foydalanishda ularni

ishlab chiqargan korxonaning tavsiya va yo'riqnomasi talablariga rioya qiling.

Gaz uskunalari ulash tartib-qoidalariga rioya qiling hamda gaz plitalardan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang.

Nosoz elektr rozetka, o'chirgich, elektr jihoz va maishiy texnikalardan foydalanmang. Elektr sim va kabellarning tashqi himoya qobiqlarining himoyalash darajasi yo'qolgan yoki zararlanganlaridan foydalanmang.

Yosh bolalarni uyda qarovsiz qoldirmang va ularga olov bilan bog'liq uy yumushlarni buyurmang. Shu bilan birga, xonada gaz hidi sezilsa, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan aslo foydalanmaslik, darhol xonani shamollatish, gaz uskunalarini bilan bog'liq nosozliklarni aniqlanganda, hududiy gaz ta'minoti filiallari va favqulodda vaziyatlar bo'limiga zudlik bilan xabar berishni tavsiya qilamiz!

Aktam ABDURASHIDOV,
Kitob tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,
katta leytenant.

BEVOSITA MULOQOT

Oltiariq tumani "Eskiarab" va "G'ayrat" mahallalaridagi aholi xonadonlarida qish mavsumida tabiiy va is gazidan zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish, chaqnash, shuningdek, yong'inlarning oldini olish to'g'risida uyma-uy kirgan holda tushuntirish ishlari olib borildi.



Tadbirlar davomida mahalladagi 27-sonli MTT va 23-sonli umumta'lim maktabi isitish qozonxonalarining faoliyati o'rganildi.

Profilaktik tadbirlar davomida 345 ta xonadonda 500 dan ortiq fuqaro bilan tushuntirish va targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. O'rganishlar davomida 22 ta dudburonning nosozligi aniqlanib, ularning barchasi joyida bartaraf etildi.

SH.ODILOV,
Oltiariq tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.
Nodir QORABOYEV,
"Qo'qonBiokimyo" AJ OBYXTTEB inspektori, katta leytenant.

Chilonzor tumani Seul ko'chasida mehmonxona binosini qurish ishlari "Enter Engineering" qurilish kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

QURUVCHILAR ISHTIROKIDA

Obyektida o'tkazilgan yig'ilishda quruvchilar tuman qolishi uchun vaqtinchalik tashkil etilgan yotoqxonalarda vaqtinchalik elektr simlarining o'tkazilishi, ulanishda PUE talablariga rioya etmaslik hamda nosoz, nostandart isitish vositalaridan foydalanish holatlari uchrab turayotgani, bunday holatlar natijasida yong'inlar kelib chiqish xavfi mavjudligi qatnashchilarga tushuntirilib, xavfsizlik talablariga rioya qilish lozimligi aytib o'tildi.

Chilonzor tuman FV bo'limi xodimlari tomonidan shu kabi qurilish ishlari olib borilayotgan obyektlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirilib, kerakli tavsiyalar berilmoqda.

J.ISTAMOV,
Chilonzor tumani FV bo'limi
NTB boshlig'i, katta leytenant.



ЎРГАНИШ

Жиззах вилояти ФВБ ҳамда унинг туман-шаҳар бўлимлари, Миллий гвардия ва Жиззах ҳарбий прокуратураси билан ҳамкорликда ташкил этилаётган профилактик тadbirlar davomida aholi yashash xonadonlari va savdo majmualarida ўрганишlar olib borilmoqda.

Savdo majmualarida olib borilayotgan tadbirlarda tadbirkorlar bilan bugungi kunda yurtimiz b'ylab kuzatilaётган anomal sovuq

iklim sharoitida energiya resurslarini tejash, elektr va bosha ekilgida ishlovchi isitish quilmalarini nazoratsiz va kechki pайдта ёник колдирмаслик, sifat sertifikatiga эга бўлмаган, k'ulbola isitish moslamalaridan foydalanmaslik, elektr energiyasiga ortiqcha yuklama tuishining oldini olish b'ylcha йурикномалар берилиб, эслатмалар тарқатилмоқда.

Ифтихор УМАРОВ,
Жиззах вилояти ФВБ
matбуот хизмати раҳбари,
катта лейтенант.

Бобур ҲОЖИМУРОДОВ,
Жиззах шаҳар ФВ бўлими
инспектори, капитан.



Ijtimoiy tarmoqlarda ko'rib, barchamiz guvohi bo'lib turibmizki, shu kunlarda mashinalar yong'ini bilan bog'liq hodisalar birmuncha ortgan.

O'Z VAQTIDA YORDAM BERAYLIK

Fuqarolar yo'lining bir chetida yonayotgan mashinani ko'rishadi-yu, o'z telefonlari orqali videoga tasvirga olishga shoshadilar, biroq yong'in-qutqaruv bo'linmalariga xabar berish esa keyingi o'rinlarda qoladi.

Xabar bermaganlari yetmaganidek, mashinasi yonayotgan fuqaroga yordam qo'lini cho'zish xayollariga kelmaydi. Buning o'rninga soha xodimlariga o'z vaqtida xabar berishib, ular kelguniga qadar amaliy yordam ko'rsatsalar, menimcha, foydaliroq bo'lardi. Ma'lumki, yo'l harakati xavfsizligi qoidalarida belgilanganidek, har bir mashina birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan jihozlanishi kerak, albatta, ushbu qonun ham borgan kiritilmaganini shunday vaziyatlarda anglaysan kishi.

Shu o'rinda barcha haydovchilarimizni o'z boshqaruvlaridagi transport vositalarini vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish hamda noqulay ob-havo sharoitlarida hushyorlik va ogohlikka chaqirib qolamiz!

Shaxboz BOBOMURODOV, Qashqadaryo viloyati
FVB axborot xizmati xodimi, oddiy askar.

QOIDALARNI UNUTMANG!

Chiroqchi tumani FV bo'limi va tegishli soha vakillari tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida ijtimoiy soha obyektlari, aholi yashash xonadonlari hamda fuqarolar ko'p yig'iladigan maskanlarda profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Tadbirlar davomida fuqarolarga is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasi chaqnashlari hamda yong'inlarning oldini olish bo'yicha yo'riqnomalar berilib, eslatma va bukletlar tarqatilmogda. Shuningdek, tungi vaqtlarda ijtimoiy soha va qurilish davom etayotgan obyektlar, aholi turar joylari, savdo majmuallari hamda tunda insonlar qoladigan maskanlarda o'rganish va targ'ibot tadbirlari tashkil etilmogda.

O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni tegishli xizmatlar tomonidan bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

Navro'z ASADOV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
Navro'z Ravshanov,
Muborak NGQCHB BYXTTEB
PvaNB boshlig'i, podpolkovnik.

Farg'ona viloyati So'x tumanida olib borilgan profilaktik tadbirlarda viloyat FVB boshlig'i va tuman sektor rahbarlari ishtirok etdilar.

RAHBARLAR HAMKORLIGIDA



Targ'ibot tadbirlari davomida aholi yashash xonadonlarida uyma-uy yurilib, fuqarolarga yong'in, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanishning oldini olish borasi-

berildi.

berildi. Aniqlangan kamchiliklar tegishli tashkilotlar xodimlari tomonidan joyida bartaraf etilib, aholiga zarur tavsiyalar

Alimardon XOJINAZAROV,
So'x tumani FV bo'limi NTB
boshlig'i, katta serjant.

FUQARO HIMOYASI

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ob-havo keskin sovigan kunlarda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarning aksariyati is gazidan zaharlanish holati bilan bog'liq.

Shuning uchun soha xodimlari aholi yashash xonadonlarida, odamlar ko'p to'planadigan maskanlarda, shahar va tumanlarda yong'in o'chirish mashinalarida ovoz kuchaytirgichlar yordamida profilaktik tadbirlar orqali fuqarolarimizga favqulodda vaziyatlarining oldini olish borasida o'z tavsiyalarini berishmogda.

Gaz quilmalarining e'tiborsiz qoldirilishi, gaz va havo aralashmasining chaqnashi yong'in-



lar kabi noxush holatlarga ham olib kelishi mumkin.

O'z navbatida, barcha fuqarolarmizdan sovuq ob-havo sharoitida beparvo bo'lmaslik, o'z yashash xonadonlari isitish quilmalarining sozligi, dudburon mo'rikonlarining tozaligi hamda elektr va gaz jihozlaridan oqilona, hushyor foydalanishni so'raymiz.

Zero, barchamizning xavfsizligimiz o'z qo'limizdadir!

SH.NIYOZOV,
Ko'kdala tumani
FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.
S.NOROV,
G'uzor tumani FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.

Ўқинг бу қизик.

БИЗ БИЛГАН ВА БИЛМАГАН ДУНЁ

Дунё турли сир-синаотларга, шунингдек, қизиқарли ҳодисаларга бой. Қизиғи шундаки, кундалик турмушимизда ушбу ҳодисалар билан ёнма-ён бўлсак-да, негадир уларга эътибор бермаймиз.

Кимдандир эшитиб қолсак, вой ростдан ҳам шунақа-я, деб ҳайрон бўламиз. Қуйида ушбу қизиқарли фактлардан баъзиларини эътиборингизга ҳавола этамиз.



ФОТОКАМЕРА СЕЗГИСИНИ ИНСОН КЎЗИНИНГ СЕЗГИСИ БИЛАН СОЛИШТИРСА БЎЛАДИМИ?

Буни солиштириш қийин. Чунки 120 миллион кўриш ҳужайралари турли-хил функцияни бажаради. Бир қисми рангларни фарқлайди, бошқаси эса канчалик ёритилганликни қабул қилади. Биз умумий фонда расмга олмаймиз, ҳар бир ҳужайранинг ўз иши мавжуд. Кўриш аппарати мия тизими билан биргаликда ишлайди. Мутахассислар барибир энг яқин ҳулосаларни чиқаришга эришдилар. Инсон кўз қорачиғининг кенгайиши – 324 мегапикселга етар экан. Агар периферик кўриш қобилиятини ҳисобга олсак – унда 576 Мп.



НЕГА ПИНГВИНЛАР МУЗЛАБ ҚОЛИШМАЙДИ?

Ҳаммаси жуда оддий. Агар тана ва муз орасида сув бўлса, музлаб қолиш мумкин. Қорбўрон вақтида эса, музни эритсагина музлаб қолади. Пингвинлар эса қон айланиши бўйича ажойиб мавжудот ҳисобланадилар. Уларнинг панжалари ҳар доим совуқ бўлади. Энг паст қон томирлари ва артериялари жуда яқин ўтади ва веноз қон томирлари артерия қон томирларидан исинади. Натигада оёқ қисмидан унчалик музламаган қон оқиб ўтади ва панжа томирларида эса совуқ қон ўтади. Бундан шунини биламизки, панжалари совуқ бўлиб туради ва музни эритиб юбормайди.



НЕГА АЁЛЛАР ҲУСНИХАТИ ЧИРОЙЛИ?

Биринчи навбатда болаларнинг ривожланиш тезлиги. Қиз болаларда ўғил болаларга нисбатан ўзлаштириш қобилияти юқори бўлади. Улар маълумот-

ларни яхши ва тез қабул қиладилар. Шу билан бирга, қиз болалар ўз мақсадига эришиш йўлида кўпгина меҳнат қиладилар.



НИМА УЧУН ҚОН НОМСИЗ БАРМОҚДАН ОЛИНАДИ?

Аслида врачлар учун қайси бармоқдан қон олиш унчалик муҳим эмас. Инсонлар бу бармоқдан қон фойдаланадилар ва бу бармоқ қон ҳаракатли бўлгани сабаб ундан қон олишда фойдаланилади. Шуниси қизиқки, номсиз бармоқнинг учларида нервлар бошқалариникига нисбатан камроқ бўлади.



ЧАПАҚАЙЛАР

Чапақай деб асосан чап қўлни ишлатадиганларга айтилади. Фақат камчилик инсон бунини билмадики, чапақайлар миянинг ўнг ярмини ишлатишади. Бу эса улардаги ноодатий ўйлаш ва яратувчанлик қобилияти юқорилигини билдиради.

Дунёда чапақайлар жуда кўп. Чапақай аёлларга караганда эркеклар кўп. Чапақайлар ёшлигида анча қайсар бўладилар ва ўнақайларга қарганда қарма-қарши қўлни кўпроқ ишлатадилар. Машҳур расмчи Леонардо да Винчи бир вақтнинг ўзида икки қўлида расм чиза олган. Чапақайлар сони борган сари камайиб бормоқда. Тош даврида 50%,




бронза даврида – 25%, ҳозир эса – 15%.

Агар ота-оналар ўнақай бўлсалар, чапақай бола кўришлари атиги 2%ни ташкил қиладилар. Агар ота-оналарнинг бири чапақай бўлса 17%, иккаласи ҳам чапақай бўлсалар, 47% чапақай фарзанд кўриш эҳтимоли кўпроқ.

Чапақайлар Ўрта Осиё, Шарқий Европа, жанубий-шарқий Осиё, Австралияда бошқа давлатларга караганда кўпроқ учрайди.

Чапақай машҳурлар рўйхати:

- Альберт Эйнштейн
- Исаак Ньютон
- Леонардо да Винчи
- Пабло Пикассо
- Буюк Александр
- Юлий Цезарь
- Наполеон Бонапарт
- Генри Форд
- Льюис Кэрролл
- Ринго Старр
- Бобби Фишер



ЭНГ ҚИЗИҚАРЛИ МАКУЛАТУРА ҲАҚИДА ЭШИТГАНМИСИЗ?

1799 йили Луи Робер ноёб машинани ўйлаб топди. Унинг ёрдамида фойдаланиб бўлган кераксиз қоғозларни қайта ишлаш учун майдалайди. Бу машина ёрдамида кунига 100 кг. келадиган қоғозларни майдалашга эришилган.

XIX асрга келиб, кўпгина макулатура қабул қиладиган жойлар очилди. Ҳозирги вақтда макулатура йиғиш бўйича дунёда биринчилардан Германия туради. Қоғозларни қайта ишлашни 70% ни олади.

Ҳар йили дунёда 115 миллиард офис варақлари макулатурага топширилади. Хитойда эса шу вақтларда 10 000 га яқин дарахтлар фақатгина таклифнома учун кесилган. Кесилган дарахтларнинг ярми қоғоз ишлаб чиқариш учун ишлатилган.

Масрур САНАЕВ
интернет материаллари асосида тайёрлади.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти — 15:00.
Топшилди — 15:00.

Навбатчи:
М. САНАЕВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди ва
изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқлиниши
мумкин.

Газетадан олинган
материаллар манбаси
курсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон
Матбуот ва ахборот
агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-рақам
билан рўйхатга олинган.
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун — 382

Газета
"BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т
Адади — 6400 нусха